



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2025-YIL — ATROF-MUHITNI ASRASH VA "YASHIL" IQTISODIYOT YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: info@xs.uz

2025-yil 29-may, № 108 (9003)

Payshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



STRATEGIK SHERIKLIK YANADA MUSTAHKAMLANADI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Italiya Respublikasi Bosh vaziri Jorja Meloni 28-may kuni rasmiy tashrif bilan mamlakatimizga keldi.



Samarqand xalqaro aeroportida Bosh vazirni davlatimiz rahbari kutib oldi.

Oliy martabali mehmon sharafiga ikki davlat bayroqlari ko'tarildi va faxriy qorovul saf tordirdi.

Italiya Respublikasi Bosh vaziri Jorja Meloni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev hamrohligida

Samarqand shahridagi Registon maydonida bo'ldi.

YUNESKOning Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan, dunyoga mashhur Registon maydoni buyuk ajdodlarimizning bunyodkorlik salohiyatini aks ettiruvchi mamlakatimizning asosiy "tashrif qog'ozi"dir. Majmuadagi Mirzo Ulug'bek, Sherdor va

Tillakori madrasalari o'zining ulug'vorligi, boy tarixi va betakror me'morchiligi bilan yurtimiz mehmonlarida chuqur taassurot qoldirmoqda.

Oliy martabali mehmonga ushbu Sharq shaharsozligi durdonasining qurilish tarixi, me'moriy yechimlari va bezaklarining o'ziga xos jihatlari, ushbu maskan bilan bog'liq

muhim voqealar va shaxslar, shuningdek, o'zbek xalqining madaniy merosi haqida batafsil ma'lumot berildi.

So'ngra davlat rahbarlari "Silk Road Samarqand" xalqaro turizm markazidagi "Boqiy shahar" tarixiy-etnografik bog'ida bo'ldilar. Xalqimizning boy madaniy merosi, hunarmandchilik va amaliy san'atini aks ettiruvchi ko'rgazmalar tomosha qilindi. Raqs jamoalarining chiqishlaridan iborat madaniy dastur namoyish etildi.

Dunyo tarixchilari, sharqshunoslar tilida shunday gap bor: G'arbda — Rim, Sharqda — Samarqand. Bu bilan ikki mintaq

sivilizatsiyasida ushbu ikki qadimiy shahar qanchalik muhim rol o'ynaganini e'tirof etiladi. Haligacha O'zbekiston va Italiya tarixchilari, arxeologlari Samarqand va Rim misolida davlatlar o'rtasidagi aloqalar o'tmishi bilan qiziqadi, bu borada tadqiqotlar olib boriladi. Jumladan, bir necha yildan buyon O'zbekiston va italiyalik arxeologlar Samarqand shahri yaqinidagi Kofirqal'a arxeologik yodgorligini o'rganmoqda.

Ikki o'rta asrlarga oid mazkur obida Samarqand hukmdorlarining shahar tashqarisidagi qarorgohi bo'lgan. Bu yerdan V — VIII asrlarga oid kumush tangalar, muhr va boshqa ashyolar topilgan.

2023-yilda yurtimizga rasmiy tashrif bilan kelgan Italiya Respublikasi Prezidenti Serjo Mattarella mazkur qo'shma ekspeditsiya faoliyati bilan tanishib, ular ishiga muvaffaqiyat tilagan edi.

Bugungi kunda yurtimiz oliy ta'lim muassasalari Italiya universitetlari bilan ham faol hamkorlik qilmqda. Buning natijasida

oxirgi 2 yilda 100 nafardan ortiq professor-o'qituvchilarning Italiya oliy o'quv yurtlarida stajirovka o'tadi. Hozir mamlakatimizdagi

oliy ta'lim muassasalarida 700 nafardan ortiq talabalar italyan tilini o'rganmoqda. Bugungi kunga kelib ikki mamlakatning oliy ta'lim muassasalari 50 dan ortiq o'zaro kelishuvlar asosida hamkorlik qilmqda.

Yaqinda Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida bo'lib o'tgan davra suhbatida ikki davlatdagi o'rtacha yosh oliy ta'lim muassasalari rektorlari, vazirlik va idoralar vakillari ishtirok etib, hamkorlikning kelgusi istiqbollari muhokama qilindi. Oliy ta'lim muassasalari, vazirlik va idoralarda hamkorlik shartnomalari imzolandi.

Darvoqe, bir necha ming yillik tarixga ega Rim dunyoning qadimiy sivilizatsiya markazlaridan biri bo'lgani bois madaniy va siyosiy muloqotlarda "Barcha yo'llar Rimga eltadi" degan ibora paydo bo'lgan. Bugun bu ta'rifni YER yuzining sayqali, Sharq va G'arbni bog'lagan qadimiy kengta nisbatan qo'llab, barcha yo'llar Samarqandga boshlaydi deb aytish mumkin bo'lmaydi.

Tashrifning asosiy tadbirlari 29-may kuni bo'lib o'tadi.

Samarqand shahridagi oliy darajadagi muzokaralarda O'zbekiston — Italiya strategik sheriklik munosabatlari yanada mustahkamlash va ko'p qirrali hamkorlikni kengaytirish masalalari ko'rib chiqiladi. Innovatsion hamkorlik va gumanitar almashinuv loyihalari ilgari surish diqqat markazida bo'ladi.

Yakunda ikki tomonlama bitimlar to'plamini imzolash ko'zda tutilgan.

**Ziyodulla JONIBEKOV,
G'olib HASANOV,
O'ZA maxsus muxbirlari.**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Ma'lumot xizmatlari surati.

O'ZA.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining yettinchi yalpi majlisi to'g'risida AXBOROT

28-may kuni Toshkent shahrida

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining yettinchi yalpi majlisi o'z ishini boshladi.

Unda Senat, hukumat a'zolari, vazirlik va idoralarning vakillari, mahalliy Kengashlarning deputatlari, Senat huzuridagi Yoshlar parlamenti a'zolari hamda ommaviy axborot vositalari xodimlari qatnashdi.

Video konferensaloqa tarzida o'tkazilgan yalpi majlisni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Raisi Tanzila Norboyeva olib bordi.

Yalpi majlis Senatning "YouTube" tarmog'idagi sahifasi orqali to'g'ridan-to'g'ri yoritib borildi.

Senatning yettinchi yalpi majlisining birinchi kunida dastlab "Hayvonlarni identifikatsiya qilish, ro'yxatga olish va kuzatish to'g'risida"gi qonun ko'rib chiqildi.

Ta'kidlanganidek, so'nggi yillarda mamlakatimizda chorvachilikni rivojlantirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va sohani davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Bundan tashqari, sohaga ishlab chiqarishning zamonaviy usullarini keng joriy etish orqali qo'shilgan qiymat zanjirini yaratish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ilm-fan yutuqlaridan samarali foydalanish masalalari ham dolzarab ahamiyat kasb etmoqda.

Biroq hozirgi vaqtda hayvonlarni identifikatsiya qilish ishlari to'laqonli amalga oshirilmayotgani ularda xavfli yuqumli kasalliklarga qarshi profilaktik emlash tadbirlarini o'tkazish va epizootik barqarorlikni kafolatli saqlash imkoniyatini cheklamoqda.

Shuningdek, identifikatsiya jarayonlari raqamlashtirilmagani, ma'lumotlar bazasi markazlashtirilmagani natijasida hayvonlarning aniq hisobini yuritishdagi muammolar ham saqlanib qolmoqda.

Mazkur qonunda Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasi hayvonlarni identifikatsiya qilish, ro'yxatga olish va kuzatish sohasidagi vakolatli organ etib belgilanmoqda.

Shuningdek, vakolatli davlat organi vakilining hamda hayvon egasining huquq va majburiyatlarini aniq ko'rsatib o'tilmoqda. Hayvonlarni identifikatsiya qilish, ro'yxatga olish va kuzatishga doir umumiy talablar hamda muddatlar belgilanmoqda.

Hayvonlarni identifikatsiya qilish, ro'yxatga olish, kuzatish va hisobdan chiqarish bo'yicha tadbirlarni tashkil etish, elektron axborot tizimini muvofiqlashtirish va real vaqt rejimida elektron axborot almashinuvini ta'minlash Hayvonlarni

identifikatsiya qilish, ro'yxatga olish va kuzatish markazining vakolati etib belgilanmoqda.

Senatlar tomonidan ta'kidlanganidek, qonunning qabul qilinishi natijasida hayvonlarning hisobi, ularning nashi va sog'lig'i to'g'risidagi yagona elektron bazasi shakllanadi, shuningdek, hayvonlarning saqlanishi va harakatlari (migratsiyasi) tartibga solinadi hamda doimiy monitoring qilish tizimi yaratiladi.

Bundan tashqari, hayvonlarning xavfli yuqumli kasalliklarga o'tliq profilaktik emlanishiga erishiladi. Natijada hayvonlarning turli yuqumli kasalliklarga chalinishi va nobud bo'lishining oldi olinadi. Respublikada epizootik va epidemik barqarorlik ta'minlanadi.

Muhokama yakunida ushbu qonun senatorlar tomonidan ma'qullandi.

Senatning yalpi majlisida "O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi qonun muhokama etildi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda davlat xizmatlarini ko'rsatishda byurokratiya va ma'muriy to'siqlarni bartaraf etish, shu jumladan, aholining masofadan turib elektron davlat xizmatlaridan mustaqil ravishda foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek, aholi va tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash hamda soliq ma'muriyatchiligini yanada takomillashtirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, masofadan turib elektron davlat xizmatlaridan mustaqil foydalanish va zarur hujjatlarni elektron shaklda rasmiylashtirishdan keng foydalanishni yanada qo'llab-quvvatlash, uning huquqiy asoslarini mustahkamlash zarurati yuzaga kelmoqda.

Shuning uchun Soliq kodeksiga elektron hujjatda uni imzolagan shaxsning roziligini ifodalaydigan hamda uni identifikatsiya qilish imkonini beradigan elektron tasdiqlash usullaridan foydalanishga taalluqli o'zgartirishlar kiritilmoqda.

Bundan tashqari, ortiqcha undirilgan soliqni soliq to'lovchining arizasiga muvofiq kelgusi to'lovlar hisobiga kiritish muddati 15 kundan 3 kungacha qisqartirilib, Chernobil AES halokati oqibatlarini bartaraf etishda ishtirok etgan fuqarolarning, shuningdek, ularning erining (xotinining) ish haqi va boshqa daromadlari to'liq daromad solig'idan ozod etilmoqda.



Oliy Majlis Qonunchilik palatasida

PARLAMENT VA YOSHLAR O'RTASIDAGI ISHONCH KO'PRIGI

Kecha Oliy Majlis Qonunchilik palatasi huzuridagi Yoshlar parlamentining yangi tarkibdagi birinchi majlisi bo'lib o'tdi. Unda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi rahbariyati, siyosiy partiyalar fraksiyalari rahbarlari, qo'mita raislari ishtirok etdi.

Majlis boshlanishidan avval Yoshlar parlamenti a'zolarining siyosiy partiyalar fraksiyalari rahbarlari bilan uchrashuvlari bo'lib o'tdi. Ularda Yoshlar parlamenti a'zolariga a'zolik guvohnomasi va ko'krak-nishonlari topshirildi.

Ta'kidlanganidek, Prezidentimiz tashabbusi bilan mamlakatimizda zamonaviy fikrlaydigan, professional tayyorgarlikka ega yangi avlod kadrlarini tayyorlash, ularning huquq va manfaatlarini ta'minlash, bo'sh vaqtni mazmunli o'tkazish va jitmioy qo'llab-quvvatlash kabi ko'plab masalalar quy bo'g'inning o'zida hal etishga sharoit yaratmoqda.

Majlisda aytilganidek, yangi O'zbekistonda Prezident

Shavkat Mirziyoyev rahbarligida yoshlar siyosati borasida amalga oshirilayotgan ishlar dunyo miqyosida tan olinmoqda. 2023-yili Yoshlar taraqqiyoti indeksiga ko'ra O'zbekiston yoshlar siyosati sohasida eng tez rivojlanayotgan mamlakatlardan biri deb e'tirof etilgani buning yorqin dalilidir.

O'tgan davr mobaynida parlamentning ikki palatasida ham tashkil qilingan Yoshlar parlamenti kelajak bunyodkorlarining siyosiy-huquqiy bilim va ko'nikmalarini yuksaltirish, ularni qonun ijodkorligi jarayoniga jalb etish, yangi qabul qilingan qonunlarni yoshlar orqasida targ'ib etish orqali yigit-qizlarning jamiyat hayotidagi daxldorligini kuchaytirishga xizmat qiladigan muhim institut sifatida shakllandi.



Elchi Pyergabriele Papadia de BOTTINI:

IKKI TOMONLAMA MUNOSABATLARDA YANGI BURILISH

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Italiya Bosh vaziri Jorja Meloni 28-29-may kunlari rasmiy tashrif bilan mamlakatimizda bo'lib turibdi. "Dunyo" AA muxbiri tashrif arafasida Italiyaning O'zbekistondagi elchisi Pyergabriele Papadia de Bottini bilan ikki tomonlama munosabatlarning joriy holati va istiqbollari xususida suhbatlashdi.

Eksklyuziv intervyu

— Elchi janoblari, ma'lumki, 2023-yil 7 — 9-iyun kunlari O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rasmiy tashrif bilan Italiyada bo'lgan edi. 2023-yil 9 — 11-noyabr kunlari esa Italiya Prezidenti Serjo Mattarella rasmiy tashrif bilan yurtimizga keldi. Salmuqli natijalarga boy ushbu tashriflar ikki davlat o'rtasidagi hamkorlikda yangi sahifa ochdi. Mazkur muloqotlarning mantiqiy

davomi sifatida bugun Italiya Bosh vaziri Jorja Melonini O'zbekistonda qarshi olaypmiz. Shu nuqtayi nazardan, Italiya Bosh vazirining ushbu tashrifidan qanday natijalar kutilmoqda?

— To'g'ri ta'kidladim, 2023-yil Italiya va O'zbekiston ikki tomonlama munosabatlarda, haqiqatan ham, muhim voqealarga boy va o'ta ahamiyatli yil bo'ldi.



Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni oldidan

FARZANLARIMIZ TAQDIRI MILLAT TAQDIRIGA DAXLDOR



Bolalik — inson hayotidagi eng go'zal, beg'ubor, g'am-tashvishlardan xoli davr. Xalqimiz "Bolalik — podsholik" deya ulug'laydi bu mas'um davrni. Chunki bolalik — har qanday insonning hayotidagi ilk taassurotlar, orzular va shu bilan birga shaxs sifatida shakllanadigan, kelajak poydevori qo'yiladigan palla. Bolalar qalbi hamisha charog'on, niyati pok, sof ruhiyati esa mehrga limmo-lim bo'ladi. Farzand dunyoga kelar ekan har biri ayrica g'amxo'rlik, beminnat parvarish, suyib-erkalashga tashna bo'ladi.

Aynan shu bois ham jonajon Vatanimizda bola huquqlariga, har bir go'dakning sog'lom o'sishi, yetuk va barkamol bo'lib ulg'ayishiga alohida e'tibor qaratiladi. Bugun qorako'zlarimizning ertasi, yorqin kelajagi uchun amalga oshirilayotgan islohotlar va tashabbuslar mamlakatimiz taraqqiyotining muhim yo'nalishlaridan biriga aylangan.

O'zbekistonda bolalarni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga qaratilgan islohotlar tahliliga nazar tashlanar ekan, mamlakatimizda voyaga yetayotgan har bir bola — bu ulkan mas'uliyat, uni himoya qilish — insonparvarlik, tarbiyalash — ma'rifat ekanining shohidi bo'lamiz.

"Bol shirin, boldan bola shirin", "Bolali uy — xandon", "Bolajonning bolasi, qantak o'rik donasi" — necha asrlarki tildan-tilga ko'chib kelayotgan ushbu hikmatli so'zlar dono xalqimizning nechog'li bolajon millat ekanidan dalolat beradi. Shu ma'noda, bugun ham bolalar masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri. Bu bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar, qabul qilinayotgan dastur va qarorlar nafaqat jamiyatimiz, balki xalqaro hamjamiyat tomonidan ham e'tirof etilmoqda.



O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining yettinchi yalpi majlisi to'g'risida

AXBOROT



Senatorial o'z chiqishlarida muhokama etilgan qonunda masofadan turib elektron davlat xizmatlaridan foydalanishni qo'llab-quvvatlash, shuningdek, ortiqcha undirilgan soliq summalarini soliq to'lovchining boshqa soliq bo'yicha kelgusi to'lovlarida hisobga olish tartibini yanada soddalashtirish, ayrim toifadagi shaxslarga soliq imtiyozlarini berish o'z aksini topganligini ta'kidlab o'tdi.

Mazkur qonun senatorlar tomonidan ma'qullandi.

Shundan so'ng majlisda "O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi qonun senatorlar tomonidan muhokama qilindi.

Ta'kidlanganidek, mamlakatimizda inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni va qadr-qimmatini oliy qadriyat hisoblanadigan insonparvar demokratik davlatni barpo etish borasida tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Ushbu islohotlar natijasida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham inson, shu jumladan, jabrlanuvchi huquqlari kafolatlari belgilangan.

Mazkur qonun ham ana shu tizimli islohotlarning mantiqiy davomi hisoblanadi. Bugungi kunda ayrim ma'muriy huquqbuzarliklar ijtimoiy ahamiyatini yo'qotgan va ularning soni keskin kamaygan. Shu bilan bir vaqtda Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning bir nechta maddasida ayni bir ma'muriy huquqbuzarlik uchun javobgarlik belgilangan. Shu bois ushbu qonun ularni muvofiqlashtirish maqsadida ishlab chiqilganligi qayd etildi.

Ushbu qonun bilan O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga ayrim huquqbuzarliklar uchun qilmishning xususiyatidan, jazolashdan ko'zlangan maqsadga erishish uchun yetarlikli nuqtayi nazaridan kelib chiqqan holda ma'muriy javobgarlikni bekor qilishga qaratilgan tegishli o'zgartirishlar kiritilmoqda.

Shuningdek, ayni bir qilmish, ya'ni tamaki mahsulotini belgilanmagan joylarda iste'mol qilish uchun Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning turli maddalarida nazarda tutilgan javobgarlik alohida moddada (561-madda) aks ettirilmoqda.

Bundan tashqari, kodeksning ayrim maddalarida nazarda tutilgan huquqbuzarliklar bilan bog'liq ishlarini ko'rishga jabrlanuvchining arizasi bo'lgan taqdirdagina yo'l qo'yilishi belgilanmoqda.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi

kodeksning boshqa maddalariga ham yuqoridagi o'zgartirish va qo'shimchalardan hamda Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlari dasturidan kelib chiqqan holda tegishli o'zgartirishlar kiritilmoqda.

Senatorial ta'kidlanganidek, mazkur qonun qabul qilinishi bilan inson huquqlari kafolatlari kuchayishiga, huquqiy ta'sir choralari qo'llashda mutanosiblik prinsipi amal qilinishining ta'minlanishiga hamda mas'ul davlat organlari ish yuklamasining kamayishiga, fuqarolar o'rtasidagi ayrim kelishmovchiliklar suda qadar hal etilishiga erishiladi.

Qonun senatorlar tomonidan ma'qullandi. Shuningdek, "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga soliq va tadbirkorlik sohasidagi huquqiy munosabatlarni takomillashtirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun ko'rib chiqildi.

Ta'kidlanganidek, so'nggi yillarda mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyati uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, soliq siyosatini takomillashtirish orqali soliq yukini kamaytirish, iqtisodiyotni jadal rivojlantirish borasida izchil islohotlar olib borilmoqda.

Shu bilan birga, mazkur islohotlar doirasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar soliq sohasidagi huquqbuzarliklarning oldini olishga, jinoyat ishlari doirasida tadbirkorlik subyektlarining huquqiy himoyasini kuchaytirishga qaratilgan huquqiy mexanizmlarni yanada takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Shu maqsadda ishlab chiqilgan mazkur qonun bilan Jinoyat kodeksiga, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga soliq sohasidagi huquqbuzarliklar uchun javobgarlikni kuchaytirish, soliqdagi yoki jinoyat to'lashdan bo'yin tovlaganlik uchun javobgarlikka sabab bo'ladigan zararning miqdorini oshirish, yetkazilgan zararining miqdoriga qadar bosqichda va sud muhokamasi davomida to'liq qoplangan taqdirda javobgarlikdan ozod qilish, shuningdek, vakolatli organlarning tergovga qadar tekshiruv harakatlarini amalga oshirish hamda ma'muriy huquqbuzarliklarni ko'rib chiqish bilan bog'liq vakolatlarni aniqlashtirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilmoqda.

Jinoyat-protsessual kodeksiga tadbirkorlik subyektlariga nisbatan qo'zg'atilgan jinoyat ishlari bo'yicha surishtiruv, dastlabki tergov yoki sud jarayonida Biznes-ombudsman yoki Savdo-sanoat palatasi tomonidan tayinlangan

vakil jamoat himoyachisi sifatida ishtirok etishini belgilovchi qoidalar kiritilmoqda.

Bundan tashqari, Fuqarolik kodeksida va Soliq kodeksida sud qaror chiqaruvchi qadar tergov jarayonida qo'shimcha hisoblab undirilgan soliq va yig'irmalar bo'yicha penya hisoblanmasligi, jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yilgan yer uchastkasi bo'yicha to'lab berilgan kompensatsiya pullari daromad solig'iga tortilmasligi kabi o'zgartirishlar ham nazarda tutilmoqda.

Senatorial o'z chiqishlarida ta'kidlanganidek, mazkur qonun soliq sohasidagi huquqbuzarliklarning oldini olishga, soliq tushumlarining barqarorligini ta'minlashga, tadbirkorlikni rivojlantirish uchun teng raqobat sharoitlarini yaratishga, tadbirkorlarning qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish kafolatlari kuchaytirishga xizmat qiladi.

Muhokamadan so'ng mazkur qonun senatorlar tomonidan ma'qullandi.

Bundan tashqari, "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi qonun ko'rib chiqildi.

Qayd etilganidek, keyingi yillarda mamlakatimizda fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta'minlashga hamda huquqbuzarliklarning oldini olishga, iste'molchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlari ishonchli himoya qilinishiga, shuningdek, yod yetishmasligi kasalliklarini profilaktika qilishga va ularning oldini olishga qaratilgan tizimli ishlar olib borilmoqda.

Shu bilan birga, talon-toroj qilganlik, ichki ishlar organlari xodimining va O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi harbiy xizmatchisining (xodimining) qonuniy talablarini bajarmaslik uchun jazo choralari kuchaytirish, shuningdek, savdo sohasida iste'molchilarning huquqlari himoya qilinishini ta'minlash uchun qo'shimcha shart-sharoitlar yaratish, iste'mol bozori yodlangan tuz va yodlangan oziq-ovqat mahsulotlari bilan to'ldirishga doir choralari ko'rish zaruriyati yuzaga kelmoqda.

Shu bois mazkur qonun bilan O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi, "Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi hamda "Yod yetishmasligi kasalliklari profilaktikasi to'g'risida"gi qonunlariga tegishli o'zgartirishlar kiritilmoqda.

Xususan, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga energiya resurslarini oz miqdorda talon-toroj qilish hamda ichki ishlar organlari

xodimining va O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi harbiy xizmatchisining (xodimining) qonuniy talablarini bajarmaslik bilan bog'liq huquqbuzarliklar uchun jazo choralari kuchaytirilishini nazarda tutuvchi qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilmoqda.

Shuningdek, "Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga sotuvchilarni oldi-soti shartnomasida ko'rsatilgan majburiyatlarni o'z vaqtida bajarishga undaydigan normalarni belgilovchi qo'shimcha kiritilmoqda.

Ta'kidlanganidek, 2024-yilda Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasiga iste'molchilardan kelib tushgan 30 070 ta murojaatning 4 213 tasida sotuvchilar tomonidan tovarlar (avtomobil, maishiy texnika, tayyor ovqat, mebel va boshqalar) kelishilgan muddatlarda yetkazib berilmaganligidan norozi bo'lgan.

Bundan tashqari, birgina avtomobil oldi-sotidi bo'yicha shartnomalarda ko'rsatilgan muddatlarga rioya etilishi tizimli ravishda o'rganilganda 5 332 ta holatda sotuvchilar tomonidan avtomobillarni yetkazib berish muddatlari buzilishi aniqlangan.

Qonun bilan oldi-soti shartnomasiga muvofiq sotuvchi shartnomada belgilangan muddatda tovarni iste'molchiga yetkazib bermagan taqdirda sotuvchi chekkatirilgan har bir vaqt birligi (shartnomada ko'rsatilgan daqiqa, soat, kun) uchun majburiyatning bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida iste'molchiga penya to'lashi, biroq bunda penyaning umumiy summasi topshirilmagan tovar bahosidan oshib ketmasligi kerakligi aniq belgilab qo'yilmoqda.

Bundan tashqari, "Yod yetishmasligi kasalliklari profilaktikasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga mamlakatimizda faqat yodlangan osh tuzi ishlab chiqarilishini, olib kirilishini va realizatsiya qilinishini, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishda yodlangan tuzdan majburiy tarzda foydalanilishini, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Sog'lig'ini saqlash vazirligining osh tuzini hamda oziq-ovqat mahsulotlarini yodlashga, yodlangan tuzning muomalasiga doir sanitariya qoidalarini, normalari va gigiyena normalarini belgilash sohasidagi vakolatlari aniqlashtirilishini nazarda tutuvchi o'zgartirishlar kiritilmoqda.

Senatorial tomonidan qonunning qabul qilinishi mamlakatimizda qonun ustuvorligini ta'minlashga, iste'molchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha huquqiy asoslarni yaratishga, shuningdek, aholining sog'lig'ini saqlashga xizmat qilishi ta'kidlandi.

Qonun senatorlar tomonidan ma'qullandi. Shu bilan birga, "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun muhokama qilindi.

Ta'kidlanishicha, sud faoliyati va odil sudlov samaradorligini oshirishga qaratilgan izchil islohotlar sudlar faoliyatida ochiqlik va shaffoflikni ta'minlashga keng imkon berdi. Islohotlar natijasida sud hokimiyatining ochiqligi ilg'or xalqaro standartlarga muvofiqlashtirildi.

Jumladan, aholi bilan ochiq muloqotlar yo'lga qo'yildi, sayyor sud majlislarining ko'lami oshirildi, sudlarning jamoatchilik va ommaiy axborot vositalari bilan hamkorlik aloqalari yangi bosqichga olib chiqildi.

Ochiq sud majlislarida barcha fuqarolarga hech qanday to'siqsiz ishtirok etish imkoniyatlari taqdim etildi. Sud qarorlari hech kimdan sir tutulmasdan onlayn tarzda e'lon qilimoqda.

Shu bilan birga, mamlakatimizda shaxsning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish, uning sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilish qonun hujjatlarini bilan mustahkamlangan.

Jumladan, Konstitutsiyaning 31-moddasida har bir inson shaxsiy hayotining daxlsizligi, shaxsiy va oilaviy sirga ega bo'lish, o'z sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish huquqiga ega ekanligi mustahkamlandi. Shuningdek, shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish huquqiga egaligi Konstitutsiya darajasida e'tirof etilgan.

Qayd etish lozimki, yopiq sud majlislarini o'tkazishga oid ham qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinib, ularni o'tkazish tartibi va muddatlari aniq belgilandi.

Qonun huquqiy islohotlarning mantiqiy davomi bo'lib, unda Jinoyat kodeksi, Jinoyat-protsessual kodeksi, Fuqarolik-protsessual kodeksi, Iqtisodiy-protsessual kodeks va Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksga yopiq sud ma'lumotlarini oshkor qilmaslik bo'yicha sud muhokamasi ishtirokchilariga tegishli majburiyat yuklash va buni buzganlik uchun jinoyi javobgarlikni belgilash nazarda tutilmoqda.

Jumladan, qonun bilan Jinoyat kodeksi 239-moddasining nomi surishtiruv, dastlabki tergov yoki sud majlisi ma'lumotlarini oshkor qilish deb to'ldirilib, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sudning ruxsatisiz surishtiruv, dastlabki tergov yoki sud ma'lumotlarini oshkor qilmaslik to'g'risida majburiyat yuklatilgan shaxs tomonidan oshkor qilganlik uchun javobgarlik belgilanmoqda.

Shuningdek, Jinoyat-protsessual kodeksiga yangi modda bilan Fuqarolik-protsessual va Iqtisodiy-protsessual kodekslari, shuningdek, Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksning "Sud majlisi"ga oid maddalari yangi qism bilan to'ldirilib, ishni yopiq sud majlisida ko'rganida sud majlisida ishtirok etayotgan shaxslar sud muhokamasi ma'lumotlarini hamda tafsilotlarini sudning ruxsatisiz oshkor qilmaslik to'g'risida ogohlantirilib, ulardan tixat olinishi va tilkatta mazkur majburiyatni buzganlik uchun Jinoyat kodeksining 239-moddasiga binoan javobgarlik haqidagi ogohlantirish ham aks ettirilishi mustahkamlab qo'yilmoqda.

Senatorial ushbu qonunning hayotga tatbiq etilishi sud sessiyasida shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilish kafolatlari yanada kuchaytirilishiga, sud muhokamasi ishtirokchilarining shaxsiy hayoti haqidagi ma'lumotlar oshkor etilishining oldi olinishiga xizmat qilishini ta'kidlab.

Qonun senatorlar tomonidan ma'qullandi. Shundan keyin "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga jinoyat-protsessual kodeksiga qaratilgan choralari instituti takomillashtirilayotganligi munosabati bilan qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi qonun senatorlar tomonidan muhokama qilindi.

Ta'kidlanganidek, so'nggi yillarda mamlakatimizda inson huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish tizimini yaratishga, "Inson sha'ni va qadr-qimmatini uchun" tamoyili asosida uni yangi bosqichga ko'tarishga, sud organlari va huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilish kafolatlari kuchaytirishga, shuningdek, aholining huquqni muhofaza qilish tizimiga bo'lgan ishonchini yanada mustahkamlashga qaratilgan keng ko'lami islohotlar olib borilmoqda.

Mazkur qonun ham ana shu tizimli islohotlarning mantiqiy davomi bo'lib, "O'zbekiston - 2030" strategiyasida belgilangan vazifalar ta'minlash maqsadida ishlab chiqilganligi qayd etildi.

Qonun bilan Jinoyat-protsessual kodeksiga hamda "Prokuratura to'g'risida"gi va "Sudlar to'g'risida"gi qonunlarga bir qator qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilmoqda.

Jumladan, Jinoyat-protsessual kodeksi yangi bob bilan to'ldirilib, unda O'zbekiston Respublikasidan chiqish huquqini vaqtincha

cheklab qo'yish maqsadi va asoslari, O'zbekistondan chiqish huquqini vaqtincha cheklab qo'yish to'g'risida iltimosnoma qo'zg'atish, bunday iltimosnomani ko'rib chiqish, sud ajrimi, O'zbekiston Respublikasidan chiqish huquqini vaqtincha cheklab qo'yish yoki cheklashni rad etish kabi normalar bayon etilgan.

Bundan tashqari, "Sudlar to'g'risida"gi hamda "Prokuratura to'g'risida"gi qonunlarga sudlar tomonidan pasportning (harakatlanish hujjatining) amal qilinishini to'xtatib turish haqida iltimosnomani ko'rib chiqish, shuningdek, prokurorlar tomonidan pasportning (harakatlanish hujjatining) amal qilinishini to'xtatib turish haqida iltimosnomani ko'rib chiqish va rozi bo'lgan taqdirda sudlarga kiritishni nazarda tutuvchi qo'shimcha kiritilmoqda.

Ta'kidlanganidek, mazkur qonun fuqarolarning huquq va erkinliklarining ishonchli himoyasini ta'minlashga, odil sudlovning sifatini yanada oshirishga qaratilganligi bilan ahamiyatli.

Muhokama yakunida qonun senatorlar tomonidan ma'qullandi.

Yalpi majlisda "Soliq va byudjet qonunchiligi takomillashtirishini munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun ko'rib chiqildi.

Qayd etilganidek, mamlakatimizda soliq va byudjet qonunchiligi takomillashtirish, soliq to'g'risidagi qonunchilik talablarini soddalashtirish va soliq ma'muriyatining yangi hamda samarali vositalarini joriy etish yo'li bilan tadbirkorlik subyektlariga soliq yukini kamaytirish, shuningdek, davlat moliyaviy nazoratni organlari faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda.

Qonun bilan Byudjet kodeksiga navbatdagi yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risidagi qonun loyihasini va Byudjetnomani parlamentga kiritish muddati belgilanishini, jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirish to'g'risidagi axborot rasmiy veb-saytlarga, "Ochiq byudjet" axborot portaliga joylashtirilishini nazarda tutadigan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilmoqda.

Bundan tashqari, Soliq kodeksiga byudjet tashkilotlariga jaraga berilgan yer uchastkalaridan soliq undirish tartibini, jaraga beruvchi yoki jaraga oluvchi tomonidan yer solig'ini to'lash tartibini, shuningdek, ayrim sohalarida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlari uchun soliq imtiyozlari berishini va boshqa masalalarni kiritish ham nazarda tutilgan.

Biroq mazkur qonunda qayta ko'rib chiqilishi lozim bo'lgan ayrim masalalar mavjudligi senatorlar tomonidan alohida ta'kidlab o'tildi.

Jumladan, beg'araz yordam doirasida kelgan tibbiy asbob-uskunalaridan pulli xizmatlar ko'rsatish masalasini qayta ko'rib chiqish lozimligiga e'tibor qaratildi.

Shuningdek, Davlat byudjetini parlament tomonidan qabul qilish va ma'qullashning qat'iy muddatlarini belgilash ham zarurligi ta'kidlandi.

Muhokama mobaynida ayrim qonun normalarini so'nggi qabul qilingan qonunchilik hujjatlaridan kelib chiqqayta ko'rib chiqish hamda takomilga yetkazish zarurati borligi ham qayd etildi.

Shularni inobatga olib, qonunni qayta ko'rib chiqish maqsadga muvofiqligi to'g'risida Senat qarori qabul qilindi.

Shu bilan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining yettinchi yalpi majlisining birinchi ish kuni yakunlandi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Axborot xizmati.

AHOLI MANFAATLARI HIMOYASINING HUQUQIY ASOSLARI YARATILADI

Kecha o'z ishini boshlagan Oliy Majlis Senati yettinchi yalpi majlisining dastlabki kunida bir qator dolzarb masalalar, shu jumladan, qonunlar chuqur tahlildan o'tkazildi. Qayd etilganidek, mazkur qonunlar shiddatli davr talabari asosida ishlab chiqilgan. Senatorlar ulardan ayrimlarining mazmun-mohiyati hamda islohotlarning hozirgi bosqichidagi ahamiyati xususida quyidagicha fikr bildirishdi.

Munosabat

Soliq qonunchiligidagi yengillik va qulayliklar

Erkin GADOYEV, Oliy Majlis Senatining Byudjet va iqtisodiy masalalar qo'mitasi raisi:

Oliy Majlis Senatining yettinchi yalpi majlisida muhokama qilingan "Soliq kodeksiga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi qonun bilan soliq to'lovchilarga yanada qulayliklar yaratish va ular zimmasidagi



hujjatlarni shaxsning roziligini ifodalaydigan hamda uni yuz qiyofasi yoki barmoq izi orqali identifikatsiya qilish imkonini beradigan (Face-ID) tasdiqlash usulidan foydalanishga sharoit yaratilmoqda.

Sir emaski, shu paytga qadar ba'zi sabablarga ko'ra soliqqa o'tib ketgan ortiqcha mablag'ni qaytarib olish ancha murakkab, aytish mumkin bo'lsa, imkonsiz edi. Kodeksga kiritilayotgan o'zgartirish bilan soliq to'lovchi tomonidan ortiqcha to'langan yoki undan ortiqcha undirilgan soliq summasi uning qarzi bo'lmagan taqdirda soliq to'lovchiga qaytarilishi borasida ham yengilliklar ko'zda tutilmoqda.

Amaldagi tartib bo'yicha ortiqcha to'lov byudjetdan qaytarilar yoki faqat ushbu soliq bo'yicha kelgusi to'lov uchun hisobga olinishi mumkin edi. Bu esa soliq summasinging byudjetdan qaytarilishida ma'lum muddatni talab qilib, soliq to'lovchining aylanma mablag'lari yetishmasligiga sabab bo'lar edi.

Kiritilayotgan o'zgartirishga asosan ortiqcha to'langan soliqdan tashqari boshqa soliqlar bo'yicha ham kelgusi to'lovlar hisobidan inobatga olinishi belgilanmoqda.

Bundan tashqari, shu paytga qadar Chernobil AESdagi avariya oqibatlarini tugatishda qatnashgan fuqarolar jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'ini to'lashdan ozod etilgan edi. Endilikda ularni daromad

solig'idan ham ozod qilish belgilanmoqda.

Qonun bilan qishloq xo'jaligida, shu jumladan, baliqchilik xo'jaliklarida sud resurslaridan foydalanilganlik uchun soliq hisobotlari "Suv hisobi" axborot tizimining va sud resurslari hisobini yurituvchi vakolatli organlarning ma'lumotlari asosida soliq organlari tomonidan avtomatik tarzda shakllantirilishi belgilanmoqda. Bu amaliyot soliq to'lovchilar tomonidan yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan xatoliklarning oldini olishga xizmat qiladi.

Ushbu qonunning qabul qilinishi natijasida soliqqa tortish mexanizmi soddalashtirib, soliq ma'muriyatidagi shaffofligi ta'minlanadi, shuningdek, soliq munosabatlari inson omili va soliq to'lovchilarning soliq majburiyatlarini bajarishdagi sarf-xarajatlari qisqaradi. Lo'nda aytganda, soliq to'lovchilarga keng qulayliklar yaratiladi.

Vaqtincha cheklov – jinoyatchi uchun tushov

Moyra TOSHOVA, Oliy Majlis Senatining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitasi a'zosi:

Amaldagi jinoyat-protsessual qonunchiligida protsess ishtirokchilarining O'zbekistondan chiqish huquqini vaqtincha cheklashni nazarda tutuvchi me'yor mavjud emasligi bois jinoyat sodir qilgan shaxslarning mamlakat hududini tark etib surishtiruv, tergov va sudan bo'yin tovlash holatlari uchrayotgan edi.



Shu bois O'zbekiston Respublikasi chegarasini tark etib surishtiruv, dastlabki tergov yoxud sudan uzrli sabablarsiz bo'yin tovlashi mumkinligiga yetarli asoslar mavjud bo'lganda surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki

sud ularning mamlakatdan chiqish huquqini vaqtincha cheklash tartibini joriy qilish bo'yicha O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga tegishli qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilmoqda.

Senat muhokamasiga qo'yilgan mazkur qonun bilan Jinoyat-protsessual kodeksiga, "Prokuratura to'g'risida"gi hamda "Sudlar to'g'risida"gi qonunlarga tegishli qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilmoqda.

Jinoyat-protsessual kodeksi shaxsning O'zbekiston Respublikasi hududidan chiqish huquqini vaqtincha cheklab qo'yishni nazarda tutuvchi majburiy chorasi ko'rsatilgan yangi bob bilan to'ldirilmogda.

Amaldagi Jinoyat-protsessual kodeksiga sudlar tomonidan pasport (harakatlanish hujjati)ning amal qilishini to'xtatib turish haqida iltimosnomani ko'rib chiqish bilan bog'liq norma kiritilgan. Ammo "Sudlar to'g'risida"gi Qonunda ushbu vakolat nazarda tutilmagan.

Shu bois qonunga prokurorning vakolatlari qatoriga pasport (harakatlanish hujjati)ning amal qilinishini to'xtatib turish haqida iltimosnomani ko'rib chiqish va rozi bo'lgan taqdirda sudlarga kiritish bilan bog'liq qo'shimcha kiritilmoqda.

Shu bois qonunga prokurorning vakolatlari qatoriga pasport (harakatlanish hujjati)ning amal qilinishini to'xtatib turish haqida iltimosnomani ko'rib chiqish va rozi bo'lgan taqdirda sudlarga kiritish bilan bog'liq qo'shimcha kiritilmoqda.

Ushbu qonunning qabul qilinishi protsessual qonunchilikdagi bo'shliqlarni bartaraf etib, odil sudlov sifatini oshirishga va sud ish yurituvini takomillashtirish, shuningdek, shaxsning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini sud orqali himoyalashga, uning qonuniy huquq hamda manfaatlariga ziyon yetkazilishining oldini olishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi, shu jumladan, Huquq ustuvorligi indeksining Fuqarolik odil sudlovi va Jinoyi odil sudlov tarkibiy indikatorlaridagi o'rni yaxshilashga zamin yaratadi.

"Xalq so'zi".

FARZANDLARIMIZ TAQDIRI MILLAT TAQDIRIGA DAXLDOR



Yurtida huquq ustuvor bo'lsa

Yaqin o'tgan yillarda O'zbekistonda bolalar majburiy mehnatiga qat'iy chek qo'yilgani, bu borada qonunchilikning mustahkamlanishi va aniq amaliyotning yo'lga qo'yilgani ulkan yutuqlarimizdan. YUNISEF hamda Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) va boshqa nufuzli tuzilmalar O'zbekistonning bolalar huquqlarini ta'minlashga qaratilgan islohotlarini olqishlab, uni mintaqadagi ilg'or tajriba sifatida qayd etayotgani tahsinga sazovor.

Mamlakatimizda bolalar huquqlarini himoyalash, ularning manfaatlarini ta'minlash maqsadida ta'xis qilingan Bolalar ombudsmani instituti bu jarayonda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu tuzilma jamiyatda bola huquqlarining buzilishi, ta'lim va tarbiyadagi kamchiliklar, majburiy mehnat, zo'rovonlik, bee'tiborlik holatlariga qarshi samarali kurashishni maqsad qilgan. Bolalar ombudsmani tomonidan har yili maxsus hisobotlar tayyorlanib, qonunchilik va amaliyotdagi mavjud muammolarga huquqiy va ijtimoiy yechimlar berilmoqda.

Bu — har bir bola davlat va jamoatchilik e'tibor markazida ekanidan dalolatdir.

Ta'lim — kelajak poydevori

“Daraxtdan meva olaman desang, niholligidan parvarish qil”, deya topib aygan bobolar. “Erka boqilgan qulun tekis yerda ham qoqiladi”. Bu — agar bola yoshligidan mehnatga, mashaaqatga ko'niktirilmasa, katta bo'lganida turmush kechirishda salgina qiyinchilikka ham bardosh bera olmaydi, deganidir.

Statistik raqamlar aynan so'nggi yetti yil ichida bog'chalar bilan qamrov 700 ming nafar boladan 2,3 milliongacha oshganini ko'rsatmoqda. Bu esa bolalarning erta yoshdan ta'lim-tarbiya jarayoniga jalb etilishida ulkan siljish bo'lganini ko'rsatadi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda 7 mingga yaqin davlat maktabgacha ta'lim muassasalari va 31 mingdan ziyod xususiy bog'chalar faoliyat yuritmoqda. Bu raqamlar sohaga qaratilgan e'tibor,

amalg oshirilayotgan islohotlar samarasi sifatida namoyon bo'lmoqda. Biroq soha oldida hali ham dolzarb vazifalar turibdi. “Qamrov oshdi, lekin sifat bo'yicha qiladigan ishlarimiz ko'p. Bog'chalar nafaqat tarbiya, balki bolada ta'lim olish uchun ilk ko'nikmalarni shakllantiradigan maskanga aylanishi kerak”, dedi davlatimiz rahbari shu yilning 15-may kuni bo'lib o'tgan maktab ta'limi yuzasidan videoselektor yig'ilishida.

Ayni paytda olti yoshli bolalar maktabgacha tayyorlov guruhlari deyarli to'liq qamrab olingan. Keyingi o'quv yilida bu ko'rsatkich 100 foizga yetkazilishi rejalashtirilgan. Shu munosabat bilan tayyorlov guruhlari va boshlang'ich ta'lim o'rtasida uyg'unlikni ta'minlash dolzarb vazifaga aylandi. Bu jarayonda ilg'or xorijiy tajriba, xususan, Singapur tashkilotlari bilan hamkorlik asosida yangi dasturlar joriy etiladi. Endi bog'cha yoshidayoq bolalar tanqidi va ijodiy fikrlashga, fan va texnologiyalarga qiziqish asosida o'rgatiladi.

Bu kabi tashabbuslar bolalarda mustaqil fikrlash, muammolarga yechim topish va yangicha yondashuv ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Eng muhimi, ularning barqaror va muvaffaqiyatli kelajagi uchun mustahkam asos yaratadi.

Tarixiy manbalardan Hazrat Alisher Navoiy bolalik chog'larida Fariduddin Attorning “Mantiq ut-tayr” dostonini, ulug' muhaddis olim Imom al-Buxoriy esa Qur'oni karimni to'lagicha yod olganini bilamiz. Umuman, Sharq olamida bolalarni ilm-ma'rifatga, kitob mutolaasiga oshno qilishda bolalik muhim bosqich sanalgan. Uchinchi Renessans bunyodkorlari bo'lmish yangi avlod ham aynan bolalikedagi ma'naviy va ma'rifiy tarbiya, ilmu hunarga bo'lgan muhabbatni shakllantirish orqali yuksak

“Bol shirin, holdan bola shirin”, “Bolali uy — xandon”, “Bolaginamning bolasi, qantak o'rik donasi” — necha asrlarki, tildan-tilga ko'chib kelayotgan ushbu hikmatli so'zlar dono xalqimizning nechog'li bolajon millat ekanidan dalolat beradi. Shu ma'noda, bugun ham bolalar masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan. Mazkur soha bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar, qabul qilinayotgan dastur va qarorlar nafaqat jamiyatimiz, balki xalqaro hamjamiyat tomonidan ham e'tirof etilmoqda.

taraqqiyot poydevori o'laroq tarixda qolajak. Chunki har bir buyuk inson tafakkurida bolaliked o'qigan kitobi, eshitgan hikmati va olgan tarbiyasi birlamchi ma'naviy xazina bo'lib qoladi.

Sog'lom avlod — taraqqiyot tayanchi

Bolalar salomatligi — millat kelajagi kafolatidir. Zero, har bir sog'lom bola — sog'lom jamiyat bunyodkori hisoblanadi. Shu bois yurtimizda bolalar sog'lig'ini muhofaza qilish, ularga yuqori sifatlil tibbiy xizmat ko'rsatish ustuvor masalalardan biriga aylangan.

Ana shu ezuq maqsad yo'lida faoliyat yuritayotgan tibbiyot muassasalari qatorida Bolalar milliy tibbiyot markazini alohida qayd etish o'rinli. Yurtimizda bolalarga ixtisoslashtirilgan yuqori malakali tibbiy yordam ko'rsatish bo'yicha ilg'or muassasa sifatida tanilgan markaz 280 o'ringa ega. Uning 12 ta stasionar va 10 ta qo'shimcha xizmat ko'rsatish bo'limi turli yo'nalishlarda yuqori texnologiyali tibbiy yordam ko'rsatib kelmoqda.

Markaz o'tgan yilning aprel oyida xalqaro miqyosdagi e'tirofga sazovor bo'ldi — u O'zbekistondagi birinchi davlat tibbiyot muassasasi sifatida “JCI” (Joint Commission International)

akkreditatsiyasini oldi. Bugungi kunda mazkur sertifikatga ega bo'lgan dunyodagi yagona ixtisoslashtirilgan bolalar tibbiyot markazi sifatida yuksak xalqaro standartlar asosida faoliyat yuritmoqda. Bu kabi xizmatlardan foydalanayotgan har bir ota-ona “Bolalar salomatligi — O'zbekiston sog'liqni saqlash tizimining eng ustuvor yo'nalishi” degan tamoyil amalda o'z tasdig'ini topayotganiga mutlaq ishonch hosil qilishi, shubhasiz.

Chindan ham bola hayotida har bir kun muhim. Mitti qadamchalari bilan dunyoga ulkan maqsadlar ila kirib kelayotgan ertamiz egalarining salomatligi, jismoniy va ruhiy rivojlanishi har qachon e'tibor markazida bo'lmog'i zarur.

Ular mehrdan mahrum bo'lmaydi

Hayot turli sinovlari bilan har kimni o'z g'alvirida elaydi. Qulog'i og'ir bo'lsa-da, qalbi bilan tinglaydigan, ko'zi ko'rmasa-da, vujudi ko'zga aylangan jigabandlar — ular ham shu Vatn farzandlaridir. Shaxsan davlatimiz rahbari tomonidan ana shunday bolalarning orzu va imkoniyatlari to'siqlarga uchramasligi, ular hayotda o'z o'mini topa olishi uchun o'ringa qo'yilmoqda.

Imkoniyati cheklangan bolalarga jamiyatning ajralmas qismi sifatida teng va munosib ta'lim sharoitlarini yaratish — ustuvor vazifalardan biri. So'nggi yillarda mamlakatimizda inklyuziv ta'limni rivojlantirishga alohida e'tibor berilmoqda. Bir qator maktab va bog'chalarda inklyuziv guruhlar tashkil etildi. Mutaxassislar, logopedlar, psixologlar faoliyati kuchaytirildi. Qolaversa, imkoniyati cheklangan bolalar uchun maxsus o'quv dasturlari va metodikalar yaratildi. Bu esa ularning jamiyatda to'liq ishtirok etishiga, kelgusida o'z iste'dodlarini to'liq namoyon qilishga keng imkoniyat yaratadi.

Bundan tashqari, mamlakatimizda ijtimoiy himoya ko'lami, kam ta'minlangan oilalardagi bolalarga qaratilgan e'tibor ham yil sayin kuchaymoqda. Mahallalarda “mehr daftar”, “temir daftar”larning haqchil yuritilayotgani, ijtimoiy nafaqalarning o'z egasiga yetib borishida shaffof tizim yaratilganini ta'kidlash o'rinli. Shuningdek, iqtisodiy imkoniyati cheklangan oila farzandlarini chet tillarga o'qitish bo'ladimi, yangi startap g'oyalari va tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash bo'ladimi, xullas, bugun bir esa, bir nechta tashkilot va

O'ZBEKISTON OPERA XONANDALARINING YUKSAK IJRO MAHORATI E'TIROFI

Turkmaniston tashabbusi bilan e'lon qilingan “Xalqaro tinchlik va ishonch yili” doirasida Ashxobodda “Jahon musiqasi” xalqaro festivali tashkil etildi. Unda, shuningdek, Rossiya, Xitoy, Fransiya, Eron, Armaniston, Ozarbayjon, Qozog'iston, Qirg'iziston va O'zbekistondan taniqli bastakorlar, dirijyorlar, eng yaxshi opera xonandalari va musiqachilari qatnashdi.

Biz va jahon

Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedov ishtirokchilarga yo'llagan tabrigida “Jahon musiqasi” xalqaro festivali dunyo xalqlarining madaniy va ma'naviy qadriyatlarini ommalashtirish, madaniyat va san'at namoyandalari o'rtasidagi ijodiy hamkorlikni kengaytirishga xizmat qilishini bildiradi.

Turkmaniston Davlat madaniyat markazining “Mukamlar” saroyi sahnasida tashkil etilgan konsert dasturida opera san'atining boy turlari, jumladan, dunyo opera maktablari vokal an'analari noding namunalari ijro qilindi.

E'tiborlisi, O'zbekiston san'at ustalarining chiqishlari tomoshabinlarda alohida qiziqish uyg'otdi. Ular Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston davlat akademik katta teatrining yetakchi solistlari Damir

Rahmonov va Abdulla Shirinov, “Turkiston” kamera orkestri sozandalari ijrosidagi ariyalarni olqishlar bilan kutib oldilar.

O'zbekiston vakillari dasturidan atqoli o'zbek bastakorlarining operalaridan ariyalar, xalq qo'shiqlari va kuylari, Yevropa operasining mumtoz asarlari hamda Sharq romantikasi namunalari o'rin oldi. O'zbekistonlik san'atkorlar tomonidan taqdim etilgan “Maysaraning ishi” operasidan “Cho'ponali qo'shig'i” festivalda yuksak baholandi.

Ta'kidlash kerakki, Ashxobodda bo'lib o'tgan “Jahon musiqasi” festivali madaniy yaxlitlikning yorqin namoyishiga aylandi. O'zbekiston opera san'ati vakillarining ishtiroki esa o'zbek milliy opera maktabining yuksak saviyasini yana bir namoyon qildi.

“Dunyo” AA. Ashxobod

MUALLIMNING BEBAHO KUTUBXONASI



Jarqo'rg'on tumanining madaniy merosini o'rganishni istagan har bir kishi uchun Jarqo'rg'on minorasi muhim ahamiyatga ega. Bu minora 1109-yildagi saljujiy hukmdor Sulton Sanjarning farmoniga ko'ra qurilgan bo'lib, o'z davrida butun mintaqa uchun madaniyat qo'rg'oni vazifasini o'tagan.

Ibrat

Bu tarixiy yodgorlikka tutash hududda yan bir ajoyib go'sha bor. Bu 80 yoshli keksa muallim Jonpo'lat Ermurodov tomonidan tashkil etilgan shinam kutubxonasi.

Jonpo'lat ota Jarqo'rg'on minorasi mahallasida istiqomat qiladi. U ko'p yillar davomida yoshlarga ma'rifat ulashdi, yuzlab shogirdlarni kamolga yetkazdi. Shu ulug' yoshda ham otaxon o'z hisobidan kutubxonaga ochib, mahalla ahliga ziyo tarqatmoqda. Keksa muallim qayerga bormasin, yangi kitob yoki nashr izlab, doimiy ravishda shaxsiy kutubxonasini boyitib keladi. Bugungi kunda kutubxonada 5 mingtadan ortiq kitoblar mavjud. O'zbek va jahon adabiyoti durdonalari, ensiklopediyalar, ayniqsa, bolalar adabiyoti namunalariga alohida o'rin ajratilgan.

Jonpo'lat otaning kutubxonasi mahalla ahli uchun nafaqat kutubxonaga, balki ma'rifat maskani, muloqot maydoni, o'zbek tili va adabiyotiga bo'lgan muhabbat maskaniga aylangan. Tunu kun kutubxonaga mutolaa va muhokama uchun yoshlar to'planadi. Jonpo'lat ota ular bilan muloqot qilish, hayotiy saboq berishdan erinmaydi.

Bugun internet hayotimizni butunlay o'zgartirib yubordi, — deydi Jonpo'lat ota. — To'g'ri, u cheksiz imkoniyatlar, tuganmas axborotlar makoni. Bu makondagi qulayliklar tufayli ko'pchilik kunini internetda boshlab, shu

bilan yakunlamoqda. Ammo bu “o'rgimchak to'ri” so'nggi vaqtlarda, ayniqsa, yoshlarning hayotini tubdan izdan chiqarib yuborishiga ham qodir. Imuniteti mustahkam odam internetdan oqlona foydalanadi. Tafakkurni charxlaydigan vosita esa — kitob mutolaasi. Har qanday bilimni, kasbni chuqur egallashning yo'li kitob o'qishdir. Kutubxonam shu maqsadga xizmat qilsin deyman.

Kutubxonaga faqat kitoblar to'plami emas, balki Jonpo'lat otaning o'ziga xos ma'naviy merosi. U yerga kelgan kishi tarixning nafasini his qiladi, nurxonadan chiqqisi kelmaydi.

E'tiborlisi, Jonpo'lat otaning ushbu tashabbusi qo'llab-quvvatlanib kelinmoqda. Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi Jarqo'rg'on tumani bo'linmasi hamda Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi Surxondaryo viloyati hududiy boshqarmasi ushbu ziyo maskaniga yuzdan ortiq o'zbek va jahon adabiyoti namunalaridan sovg'a qilib, kitob fondi yanada boyishiga hissa qo'shdi.

Bu Jonpo'lat otaning mehnatini yanada rag'ballantirdi. Mahalla ahlining aytishicha, bu bilan yoshlarning bilim olish imkoniyati yanada kengaydi. Jonpo'lat otaning ushbu xayrli tashabbusi ko'pchilikka ibrat namunasi bo'lib kelmoqda.

Farhod ESONOV (“Xalq so'zi”).

“O'ZBEKISTON KARVONI” — BUYUK BRITANIYADA

Shu yilning 5 — 17-iyun kunlari Buyuk Britaniyaning oltita shahrida “O'zbekiston karvoni” nomli o'zbek madaniyati va taomlari festivali bo'lib o'tadi.

Festival

“Dunyo” axborot agentligi xabariga ko'ra mazkur madaniy tadbir Edinburg, Manchester, Liverpul, Kardiff, Oksford va London kabi yirik shaharlarni qamrab oladi. “O'zbekiston karvoni” doirasida mehmonlarga milliy taomlar taqdim etiladi hamda O'zbekiston sayohat manzili sifatida tanishtiriladi.

Ushbu safarning maqsadi O'zbekistonning turistik salohiyatini xalqaro maydonda namoyon etish, mamlakatimizga bo'lgan qiziqishni oshirish hamda Buyuk Britaniya jamoatchiligi bilan madaniy aloqalarni rivojlantirishdan iborat.

Tashabbus mamlakatimizning Buyuk Britaniyadagi elchixonasi, Turizm qo'mitasi, Londondagi “OshPaz” o'zbek milliy taomlari restorani hamda mashhur katta oshpaz Bahridin Chustiy tomonidan ilgari surilyapti.

“O'zbekiston karvoni” 21-22-iyun kunlari Londonding tarixiy markazi hamda turistlar orasida ommabop hisoblangan “Tower Bridge”da bo'lib o'tadigan “O'zbekiston madaniyati va milliy taomlari” festivalida ham taqdim etiladi.

“Xalq so'zi”.

AYDARKO'L — SAHRO MARVARIDI



Aydarko'l — ona tabiatning betakror mo'jizasi. Bir tarafdagi Qizilqum, boshqa tarafdagi ko'mo'k ko'li, uning ortidan tog' tizmalari ko'rinib turadi. Bu go'zal manzilga shahar shovqinidan bezib kelganlar sokin tabiat og'ushida, ko'li bo'yida maroqli dam oladi.

Tabiat va inson

...Baxtli mahallasidagi Navro'z qo'rg'onidan Aydar-Arnasoy ko'ligacha bo'lgan 4 kilometrlik masofada toza ichimlik suvi, 10 kVtlik elektr tarmoqlari tortilmoqda. Yo'llar yorug' va ravon bo'lishi uchun ta'mirlash ishlari olib borilmoqda. Arnasoy sohilida barpo etilayotgan Aydarko'l tibbiyot markazi — sog'lom turizmning yuksak namunasi. 4,76 gektar maydonda qad ko'tarayotgan sanatoriya nafaqat tibbiy xizmat, balki dam olish, go'zal tabiat bilan ham sayyohlarni o'ziga rom qilmoqda. 4,17 gektar maydonda qurilayotgan zamonaviy mehmonxonasi esa har bir sayohatchini o'ziga jalb etishi aniq.

Bundan tashqari, 128 o'rinni o'qvatlanish zali, milliy an'analari bilan uyg'unlashtirilgan zamonaviy dizayn — bularning barchasi turizm sohasining yangi qiyofasi. — Bir paytlar Aydarko'l qishloq xo'jaligi va baliq ovlash bilan cheklangan hudud edi, — deydi “Mehmonsevar” MCHJ rahbari Dilfuza Erdashova. — Deylik, chekka hudud hisoblangan qishloqimizda aerodrom qurilishi haqida aytishganida, dastlab ko'pchilik ishonmagani rost. Agar shu loyiha amalga ohsa, bu nafaqat sayyohlar uchun, balki mahalliy aholi uchun ham vaqt va imkoniyat jihatdan juda katta yutuq bo'ladi. O'g'lim qishloqimizdagi o'zgarishlarni ko'rib, Aydar-Arnasoy ko'li hududida 2 ming

Rustam NURMATOV (“Xalq so'zi”).

Samarqand shahrida Maktabgacha ta'lim pedagoglari malakasini oshirish markazi ochildi.

Xalq so'zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G-242. 15 407 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taqob. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuksak olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; ko'chibiyat 71-259-74-53; e'lonlar 71-259-74-55.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida teriladi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir X. Norboev.
Musahhah Sh. Mashrabboev.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxonamanzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni — 04.10 Topshirildi — 04.35 1 2 3 4 5 6